



Inson falsafasi haqida qadimgi xalqlarda turli xil qarashlar

Yuldoshova Feruza Akram qizi

yuldoshovaferuza86@gmail.com

+998919102511

Bobanazarova Mohichehra Sodiq qizi

+998900757427

Omondavlatova Xurshida Rustam qizi

+998949937004

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

tarix yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Men ushbu maqolada inson naqadar murakkab hamda psixologik jihatdan teran mavjudotligini va uning davrlar osha rivojlanib yukasalib borganligini yoritganman. Inson falsafasiga qiziqish qadimgi davrdan boshlangan bo'lsada hozirgi davr uchun ham eng muhim masala bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: Gipotezalar, Falsafa, Hind, Xitoy, Turon, Zardushiylik, "Avesto", Ahura Mazda, Zardusht, Spitaman, Yunoniston, Melit, Rigveda, Anaksimander, Anaksemin, FalesVedalar, Demokrit, Geraklit, Sezgi, Idrok, Emotsiya, Iroda, Tafakkur, Xotira, Sofistlar.



Inson hamma zamonlarda ham o'zining kimligini, o'zligini bilishga intilgan. Inson muammosiga bag'ishlangan turli gipotezalar, nazariyalar va konsepsiyalar yaratildi. Lekin zamonlar o'tishi bilan inson deb nomlanuvchi mavjudotda hali o'rganilmagan, yechilishi zarur bo'lgan muammolar, jumboqlar ko'payib boraverdi. Qadimgi zamon falsafasi namoyandalari, xususan, qadimgi Hind va Xitoy faylasuflari inson ikki yirik qudrat — tana bilan jonning uyushmasidan iborat, jon tanani tark etib, ruhga aylanib turadi, ruh esa o'lmaydi, deb tushuntirgan bo'lsalar, qadimgi Eron va Turon faylasuflari inson borlig'i olam borlig'i bilan bevosita aloqador, inson borlig'ida olam borlig'i o'z ifodasini topadi, olam borlig'i esa to'rt asosiy unsurdan: tuproq, suv, olov, havodan tashkil topgan, olam borlig'ining murakkab shakllaridan bin bo'lgan inson tabiati ham, shubhasiz, o'sha to'rt unsur bilan bog'liq bo'ladi, deb ishonitirishga harakat qildilar.

Inson borlig'i haqidagi dastlabki tasawurlar Qadimgi Sharq mamlakatlari, ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Eron, Turon xalqlari tomonidan yaratilgan afsonalar, ertaklar, dostonlar, qo'shiqlarda o'z ifodasini topgan. Odamlar o'zlari yashab turgan atrof-muhitda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni turli xudolar ramzida ifodalashgan. Odamlar va xudolarning turmush tarzlari bir xil, hatto ular bir xil xislatlar, fazilatlar va bir xil nuqsonlarga ega bo'lganlar. Lekin xudolar qudratli, kuchli, salobatli, hamma narsaga qodir, deb ta'riflangan. Asta-sekin o'sha qudratlilik, o'sha buyuklik, barcha ishlarning uddasidan chiqqan olish salohiyati odam degan tirik mavjudot tomon og'a boshlagan. Inson to'g'risidagi dastlabki falsafiy fikrlar paydo bo'lgan mamlakatlardan biri qadimgi Hindiston edi. Hindistonda inson to'g'risidagi falsafiy fikrlarning vujudga kelishi, hozirgi zamon fani ma'lumotlariga ko'ra, eramizdan avvalgi XII—VII asrlarga to'g'ri keladi Chunki bu davrlarda Hindistonda chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik rivojlandi. Dastlabki suv inshootlari barpo etildi. Savdo-sotiq jadallik bilan odimlab boraverdi. Rivojlanib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy munosabatlarni muvofiqlashtirish zaruriyati mamlakat hududida kichik-kichik davlatchalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Hindistonda inson to'g'risidagi dastlabki



falsafiy fikrlarning vujudga kelganligidan dalolat beradigan ishonchli manbalardan biri eramizdan oldingi XII—VII asrlarda shakllangan qadimgi Vedalardir Qadimgi hind Vedalarida (to'rt asosiy muqaddas kitob: Rigveda, Atharvaveda, Samaveda va Yajurveda) ya'ni diniy kutubxonasi bilimlar, gimnlar, qo'shiqlar, urf-odatlar to'plamlarida insonning insoniy xususiyatlari haqidagi dastlabki fikr-mulohazalarni uchratish mumkin. Lekin shuni alohida ta'kidlash zarurki, hind Vedalarida bayon qilingan inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar mifologik-diniy qarashlar bilan qo'shib-qorilib ketgan edi.[1.1] Zardushtiylik qoidalariga ko'ra, insonning barkamolligini belgilashda, uning nafaqat tashqi qiyofasi, balki ma'naviy dunyosi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham Ahura Mazda tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko'proq qayg'uring, chunki ma'naviy dunyongiz qancha musaffo boisa, moddiy turmushingiz ham farovon bo'lib boraveradi, deb tushuntiradi.«Avesto»da ta'kidlanishicha, insonning ma'naviy yetukligi uning do'st-u birodarlariga sadoqati, kechirimli bo'lishi, johillarning qalbini yaxshilik nuri bilan to'ldirishi, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarishi kabi mezonlar bilan o'lchanadi. Zardushtiylikning asoschisi Zardusht Spitamonning fikriga ko'ra, insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanish jarayonini tezlashtirmoq uchun, odamlar orasidagi ishonchsizlikni o'rtadan ko'tarmoq darkor. Qavm-u qarindoshlar orasida birbiriga adovat, dushmanlik bo'lmasligi lozim.[1.2] Hamkor-u hamnafaslar g'alamislardan qutulmog'i, jahon ahli yomon rahbarlar zulmidan xoli bo'lmog'i zarur. El-yurtda osoyishtalik, barqarorlik hukmron bo'lmog'i, fuqarolar ongi va faoliyatida nafaqat o'zi, balki boshqalar haqida g'amxo'rlik qilish tuyg'usi ustuvor bo'lmog'i darkor. Eron va Turon xalqlarining islomga qadar bo'lgan inson to'g'risidagi falsafiy qarashlarini qadimgi Sug'd yozma yodgorliklaridan ham bilib olish mumkin. Ana shunday madaniy yodgorliklardan biri «Qilmishlarimizning sabablari va oqibatlari» sutrasidir. Buddizm ta'limoti ta'sirida vujudga kelgan ushbu asaming yetakchi g'oyasi odamlarni yaxshilik, ezgulik tomon boshqarish, ularni ma'naviy yetuk, imon-e'tiqodli qilib tarbiyalashdan iboratdir. Sug'd sutrasida, ya'ni diniy-axloqiy pandnomasida ta'kidlanishicha inson ma'naviyatining asosida din-u e'tiqodga sadoqat



yotmog'i darkor. Din-u e'tiqodga sadoqat inson hayotining ma'nosini tashkil etmog'i lozim. Rahm-shafqat, saxovatpeshalik, jaholatni yaxshilik bilan yengish, muslih tabiatli bo'lishga chorlash, tirik jonzotlarga ozor yetkazmaslik, miskin, bevabechoralaiga sidqidildan yordam berish, din va dindorlarga, bilimli ziyolilarga izzat-ikrom, dinning turli belgilari, ramzlari, muqaddas qadamjolariga, ibodatgohlariga va ularning turli qismlariga hurmat, muqaddas kitoblarga yuksak ixlos va e'tiqod va boshqa ko'plab insoniy xislatlarni shakllantirish sutraning asosiy mazmunini tashkil etadi.[2] Qadimgi zamon Yevropa mamlakatining beshigi hisoblangan Yunon faylasuflarining inson to'g'risidagi qarashlarining shakllanishida Eron va Turon xalqlari orasida keng yoyilgan zardushtiylik diniy falsafiy ta'limotining ta'siri sezilarli bo'ldi. Bunday holatni Qadimgi Yunonistonning Milet shahri nomi bilan atalgan «Milet falsafa maktabi» (eramizdan avvalgi VI asr) namoyandalari Fales, Anaksimandr va Anaksimenlarning inson to'g'risidagi qarashlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Milet markaziy Yunonistonning savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlangan yirik shaharlaridan biri edi. Miletta Eron, Turon va Yunon xalqlari ma'naviy madaniyatlarining yaqinlashuv jarayoni sodir bo'ldi. Shu tufayli zardushtiylik ta'limotidagi olam va odam to'g'risidagi ilg'or fikr-mulohazalar miletlik faylasuflar tomonidan katta chanqoqlik bilan o'zlashtirildi. Milet faylasuflari orasida Fales (taxminan eramizdan avvalgi 624—547-y.) birinchilardan bo'lib, insoniyat tarixida insonning o'zi «o'zligini anglashi», inson faoliyatida «har narsa me'yorida bo'lishi kerak», olamda, odamda bo'ladigan o'zgarishlarni inson o'zining fahm-farosati, aql-zakovati yordamida bilib olishi mumkin, olamda biz bila olmaydigan xudolar yoki ruhlarga o'rin yo'qligil haqidagi g'oyalarni olg'a surgan bo'lsa, uning shogirdi Anaksimandr (eramizdan avvalgi 610—547—46-y.) odam suvda yashovchi jonivorlardan kelib chiqqan, deb taxmin qildi. Xullas, Milet falsafa maktabining namoyandalari odamning paydo bo'lishi va rivojlanishi o'zgarib turuvchi jarayon ekanligi to'g'risidagi fikrlarni bayon qildilar. Odamning boshqa jinsdagi tirik mavjudotlardan paydo bo'lganligini isbotlashga urinib ko'rdilar. Milet falsafa maktabi namoyandalari Fales, Anaksimandr, Anaksimen va Geraklit Efesskiylarning olamning tuzilishi, odamning vujudga kelishi to'g'risidagi fikr-mulohazalarini har tomonlama



rivojlantirgan abderlik faylasuf Demokritning (eramizdan avvalgi 460—370-y.) fikriga muvofiq, jon inson tanasini harakatga keltiruvchi manba bo'lib, u atomlardan tashkil topgan. Tana o'lishi bilan jon ham o'ladi. Chunki olamda tanadan tashqarida yashaydigan jon yo'q. O'lim esa atomlarning o'zaro to'qnashuvlari oqibatida sodir bo'lgan parchalanishning oqibatidir. Uning tushuntirishicha, odam deb ataluvchi jonli mavjudot hamisha tabiatga taqlid qilib yashaydi. Tabiatdagi go'zallik ta'sirida rassomlik vujudga keldi. O'rgimchak to'qigan to'rdan to'qimachilikni, asalaridan imorat qurishni, bulbuldan musiqani o'rgandi. Inson moddiy olamning ta'sirida o'zining sezgilari yordamida his qiladi. U olamdagi turli hodisalarni, voqealarni bilishda hissiyot bilan tafakkur, aql-farosatning o'zaro aloqadorlikda faoliyat ko'rsatishi lozimligini dalillashga urindi. Demokritning fikriga asosan, odamning boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladigan eng muhim xususiyati nutqidir. Nutq esa odamga ko'rsatilgan xudoning karomati emas, balki o'sha tirik mavjudotlarning olam bilan bo'lgan o'zaro aloqalari, amaliy faoliyatlari tufayli vujudga kelgan. Odamlar o'zlarining yashash sharoitini o'zgartirib turishlari, ularning sovuqdan saqlanish, oziq-ovqat qidirib topishning yangi uslublarini izlab topishga majbur qildi. Ana shunday munosabatlar doirasida odam asta sekin inson sifatida shakllanib bordi. Sofistlarning (donishmandlik o'qituvchilari) tushuntirishlaricha, inson o'zini o'rab turgan olamdagi jamiki hodisalarga, voqealarga tanqidiy nigoh bilan boqmog'i, olam to'g'risidagi fikrmulohazalarini takror-takror tekshirib turmog'i darkor. Boshqacha aytganda, tanqidsiz, yuzaki qabul qilingan tasdiq, har qanday e'tiqod, har qanday ishonch mustahkamligini vaqti-vaqti bilan tekshirib turmoq zarur. Sofistlar inson ongida asossiz, yuzaki shakllangan tasavvurlarga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Faqat chinakamiga isbotlangan, har tomonlama asoslangan dalillar zaminida shakllangan ongina yashashga haqli bo'lishini qaytaqayta ta'kidlaydilar.[3] *Inson ongining kelib chiqishini* tushunib olish kaliti, bu – uning biologik tuzilishi (eng avvalo, miyaning g'oyat murakkab tuzilishi va funksiyasi) hamda shakllanayotgan odamning tabiatni va o'zini o'zgartirib borgan faoliyatidir. Insonning amaliy faoliyati mohiyatini tushunmay turib ongning kelib chiqishini tushunish mumkin emas.



Ong paydo bo'lishining yana bir eng muhim omili *tildir*. Til odamlarning ijtimoiy tajribalarini ifodalab beradi, insoniyatning tarixiy taraqqiyotida tafakko'rning uzluksizligini ta'minlaydi. Inson fikri, g'oyalari, tasavvurlari so'zlarda ifodalanadi, shakllanadi, shuning uchun til, bu – fikrni, ongni ifodalashning universal vositasidir, kishilarning aloqa qilish, axborot almashish vositasidir.

Mehnat va til – ong rivojining asosiy ijtimoiy omillaridir, ammo birdan-bir omili emas. Inson hayotining, demak tafakkurining ham ijtimoiy asosi ko'pgina boshqa komponentlarni, masalan, siyosiy, huquqiy, axloqiy, tashkiliy, gnoseologik va hokazo komponentlarni o'z ichiga oladi.

Ongga, *bir butun bog'langan tizim sifatida*, uning sezgi, idrok, emotsiya, iroda, fikr va xotira kabi ajralmas elementlari kiradi. Bir butunlik ongning tizimiy sifati bo'lib, ong fenomeni mohiyatining o'ziga xosligi uning tarkibiy qismlarining har qandayiga nisbatan mutlaqo zarurligini bildiradi.

Sezgi. Inson sezgilari tashqi dunyo haqidagi axborotlarni asosiy etkazib beruvchilardir. Ko'rib, ushlab, hidlab, eshitib va ta'mga qarab sezishlar sub'ektga dunyoni bilishga, o'zini qiziqtirgan ob'ektni topishga, u turgan joyni aniqlashga, uning rangi, hidi, ta'mi, qattiq yo yumshoqligi, xarorati va boshqa sifatlari haqida axborot olishga imkon beradi.

Idrok. Ibn Sino idrok haqida bunday deb yozgan: «Odamning xususiyati shundayki, u kamyob narsalarni idrok qilganida unda ajablanish degan refleks paydo bo'ladi, shundan keyin kulgi keladi. Zararli narsalarni idrok qilish esa qo'rquv deb atalgan refleksni keltirib chiqaradi, shundan keyin yig'i keladi... Demak, odam umumiy qarash qobiliyatiga egadir hamda ayrim narsalar haqida: u foydali yoki zararli narsani qilishi lozimmi yoki lozim



emasligi, bu xavflimi yoki xavfsiz, yaxshimi yoki yomon ekanligi haqida o'ylab ko'rish qobiliyatiga egadir»¹.

Idrok – sub'ektning axborotni qayta ishlashida sezgidan keyingi bosqichdir. Bu bosqich davomida ob'ekt, uning zamon va makoniy tavsifi yaxlit holda anglab olinadi va ideal obraz unga taalluqli moddiy ob'ektning o'zi bilan, ya'ni idrok ob'ektining o'zi bilan taqqoslanadi. Tafakkur tufayli sezgi va idrok natijalariga ma'no va mazmun beriladi, munosib va tushunish qulay shakl izlab topiladi.

Emotsiya. Ong tuzilishining emotsional komponenti hodisalar va voqealarga ijobiy yoki salbiy munosabat (umid, quvonch, qo'rquv, umidsizlik va sh.k.) yoki loqaydlikni keltirib chiqaradi. Shaxsni baxslashish, tashvishlanish, emotsional shok, affekt holatida bo'lishga (rashq qilish, nafratlanish, yomon ko'rishga) undaydi, uning stress yoki frustratsiya (gangirab qolish, ruhiy ezilish) holatida bo'lishiga, quvonishi yoki g'azablanishiga sabab bo'ladi. Kechinmalar va emotsiyalarning axborot jihatidan muhim tomoni sub'ektning ob'ektga bergan bahosidan iborat (yaxshi - yomon, yaxshiroq - yomonroq va hokazo).

Iroda. Emotsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish sub'ektning irodasi bilan uzviy bog'liqdir. Sub'ekt faoliyat ko'rsatayotgan ob'ektiv sharoit bilan uni amalga oshirishning sub'ektiv imkoniyatlari tafovut qilib qolganda sub'ekt faoliyatini iroda yordamida tiklash, tartibga solish zarur bo'ladi. Shaxs avval echim tanlab, qaror qabul qilib, so'ngra uni amalga oshirishi zarur bo'lib qolgan hayotiy vaziyatda iroda ishga solinadi. Irodaning ishtirokisiz ong hech bir ish qilolmaydi, iroda odamning xatti-harakatini tartibga solib turadi, uni istalgan maqsadga erishishga yo'naltiradi. Bu erda sub'ektning ishning ko'zini bilib qaror qabul qila olishi alohida rol o'ynaydi, bu esa iroda erkinligini bildiradi.



Xotira. Ong tizimida xotira tajribaning integral yig'uvchisi va ifodachisi bo'lib xizmat qiladi. Xotira - kishining yoki kishilik jamiyatining o'zining yoki o'zganing o'tgan

zamondagi faoliyatini hozirgi zamonda saqlab qolish va tiklash layoqatidir. Xotira shunday bir yo'naltiruvchiki, u tufayli sub'ekt vaqtda ham, makonda ham muvaffaqiyatli yo'nalish oladi, bu esa uning faoliyat rejalari, sxemalari va dasturlarini tuzishida ifodalanadi. Xotiraning boshqa bir funksiyasi – o'tmishdagi voqelikni tafakkuriy qayta tiklashdir. Xotira insonga tarixiy o'tmishni va istiqbolni ko'rishga, kelajakni oldindan ko'rishga imkon beradi.

Tafakkur. Tafakko'rning o'zi emas, balki odam fikrlaydi. Odamning tafakkuri hamisha g'oyat shaxsiy va individualdir va sub'ektning qurshab turgan dunyodagi ob'ektiv aloqalar va munosabatlarni muayyan maqsadni ko'zlab, umumiy va vositali tarzda bilishini, sub'ektning ijodiy, bunyodkorlik faoliyatini, sodir bo'layotgan hodisalar va voqealarni aks ettirishdan oldin prognoz qilishni, yangi g'oyalar, qarashlar, farazlar va nazariyalar yaratishni o'z ichiga oladi. Tafakkur odamning dunyoqarashini, uning dunyoni his qilishi va idrok etishini, odamning o'z borlig'iga, o'z qilmishlariga, orzu-umidlariga o'zi bergan bahoni doimo kengaytirib boradi. Odamning tafakkuri murakkab va faol jarayondir, u abstraktlashtirish va umumlashtirish, analiz, sintez, taqqoslash, o'xshatishni, o'zining murakkabligi, xarakteri va mazmuni jihatidan g'oyat xilma-xil bo'lgan vazifalarni oqilona o'rta qo'yish va hal etishni o'z ichiga oladi. Fikrlovchi odam mantiqiy natija va xulosalar chiqarishga, hayotiy tajribaga, mehnat va kasb malakasi va mahoratiga ega bo'la oladi, u biron-bir masala bo'yicha o'z nuqtai nazarini isbotlashga, dalillar bilan asoslab berishga va himoya qilishga layoqatli bo'ladi.[4]

*Xulosa.*Inson falsafasiga qiziqish juda qadimgi davrdan boshlangan bo'lib G'arb va Sharqda inson masalasiga juda katta etibor qaratilgan.Insonga ongli mavjudot,aqilli jonzot nomlari ham bekorga berilmagan .Darhaqiqat qaysi davrga qaramaylik inson eng oliy hisoblangan.inson qadri eng ulug' qadriyat bo'lib qolmoqda.Hech bir jonzotga Alloh



tomonidan insonga berilgan qobiliyat, aql farosat ato etilmagan, bu ham inson qadri qanchalik ulug'ligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Choriev "Inson falsafasi" (birinchi kitob) Toshkent 2007. 8-9-betlar, 2.35-37 b
2. Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodigorliklar" (1-jild) Toshkent 1968y 38-40 betlar.
3. Sulaymonova F. Sharq va G'arb Toshkent-1997 32-34 betlar
4. Falsafa fanidan o'quv qo'llanma 2023 y